

YANGI O‘ZBEKISTONDA ONALIK VA BOLALIKNI HIMOYA QILISH

Qutlimuratova N.M. -

UrDPI dotsenti v.b.

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Mamlakatimizda onalik va bolalikni himoya qilish, salomatligini muhofaza qilish borasida misli ko'rilmagan darajadagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat mohiyat e'tiboriga ko'ra, gumanitar siyosatini ustuvor tamoyil deb bilgan holda onalik va bolalikni himoyalashdan iborat keng ko'lamli strategik yo'lni uzluksiz takomillashtirib bormoqda.

Davlat onalik va bolalikni muhofaza etishdan iborat munosabatlarni Sotsiologik o'rganishning dolzarbligi, avvalambor, onalik va bolalikka oid davlat siyosatining mohiyati, mexanizmlari va ijtimoiy samaradorligini tushunish va baholash, shu asosda onalik va bolalik munosabatlarini rivojlantirish konsepsiyasini takomillashtirish, yangi mexanizmlarni hayotga joriy etishni taqozo etadi.

Uning murakkabligi tez o'zgarayotgan zamon mantig'i hamda yuzaga kelayotgan turli ehtiyojlar ko'lamini bilan izohlanadi. Ehtiyojlar o'zgarishlariga e'tiborsiz yondashuv bo'lsa bunday holati butun mamlakat rivojlanishida va uning alohida fuqarolari ahvolidagi muammolarni keltirib chiqaradi. Mustaqillikning dastlabki davrida mamlakat boshidan kechirgan turli muammolar va qiyinchiliklar bugungi kunda muvaffaqiyatli yengib utilganligi yuqorida aytib o'tildi. O'tgan 34 yil davomida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishi kundalik, joriy va uzoq kelajakda hal etilishi shart bo'lgan ehtiyojlar majmuini yuzaga keltiradi. Tabiiyki, har qanday ehtiyojlarni o'z vaqtida qoniqtirmaslik aholi orasida madaniy va ma'naviy degradasiya bo'lish, moddiy yetishmovchilikka duchor bo'lish ayniqsa, yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvorga ega bo'lganlarning ko'payishi jamiyat uchun sezilarli xavf tug'diradi.

Turli ijtimoiy qatlamlar orasida ijtimoiy muammolarni hal etish aynan shu holatga mos bo'lgan ehtiyojlarni qondirish asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy oila muammolarini o'rganayotgan tadqiqotchilar tobora ko'proq oilaning ijtimoiy salohiyati, oilaviy qadriyatlar obro'sining pasayishi, yaqin qarindoshlar o'rtasida mehrning susayishi, rasmiy qayd etilmasdan oila qurishning ko'payib borishi va shunga o'xshash holatlarning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan oila, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilishning asosiy jihatlari bugungi kunda qizg'in ilmiy munozaralar mavzusiga aylangan. Ushbu munozaralar muammoni ko'rib chiqishning yagona konseptual asoslari va nazariy va uslubiy asoslarining yo'qligi bilan murakkablashadi, bu esa uni yanada rivojlantirishning konstruktiv yo'nalishlarini nazariy izlash zarurligini kuchaytiradi.

Ijtimoiy himoyaning ijtimoiy hodisa sifatida Sotsiologik tahliliga murojaat qilish dolzarb bo'lib, bu oilaviy inqiroz bilan bog'liq salbiy jarayonlarni jamoatchilik ongida tushunish va aks ettirish zarurligini belgilaydi. Ijtimoiy jihatdan noto'g'ri oila, shubhasiz, umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning ko'zgusidir. Uni Sotsiologik yo'l bilan o'rganib, biz butun jamiyat holati haqida adekvat tasavvurga ega bo'lamiz.

Oilani o'rganish milliy xavfsizlikni uning demografik jihatida ta'minlash uchun ham zarur: oila ichidagi munosabatlar darajasidagi muammolar tendensiyalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'payishiga ham, uning ma'naviy ko'payishiga ham asosiy ijtimoiy qadriyatlarning avlodlarga o'tishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun onalik va bolalikni Sotsiologik tadqiq qilish hozirgi kunda ham ilmiy-nazariy, ham ijtimoiy-amaliy jihatdan alohida dolzarb ahamiyatga ega.

"Mustaqillikning dastlabki yillaridan bu sohaning huquqiy asoslarini yaratish chora-tadbirlari olib borildi. Aholining sog'ligini saqlash ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqiy soha sifatida davlat nazoratidadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" ekanligi qayd etilgan. Bu konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishda davlat asosiy kafil bo'lib, tibbiy yordam olishga oid konstitutsiyaviy normalarning huquqiy mexanizmlari sifatida sohaga oid muayyan qonunchilik tizimi shakllantirilgan[1].

“O‘zbekistonda 176 ta maxsus normativ huquqiy hujjat, xususan, 12 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 33 ta farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 77 ta qarori, shuningdek, 230 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjatlar sog‘liqni saqlash sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga xizmat qildi. Ushbu hujjatlarda onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimi ham tartibga solingan. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida inson huquqlari, xususan bola huquqlariga oid ko‘plab xalqaro bitimlar imzolandi. Jumladan, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, Bolalarni omon asrash, himoya qilish va kamol toptirishni ta‘minlash to‘g‘risidagi Umumjahon Deklarasiyasi, Bolalarni boshqa mamlakatga o‘g‘irlab olib ketishning fuqarolik jihatlarini to‘g‘risidagi Gaaga Konvensiyasi ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining 25-moddasida Onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar nikohda va nikohsiz tug‘ilganligidan qat’i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak deya ta’kidlangan”[2].

Shuningdek, BMTning “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Paktida Barcha bolalar va o‘smirlarga hech bir kamsitishsiz, oilaviy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat’i nazar, alohida himoya choralari va yordam ko‘rsatilishi shartligi qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga ko‘ra, Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi deyiladi. Sohaga doir bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi”[2].

“Mustaqillikning dastlabki 20 yilida sog‘liqni saqlash tizimining me‘yoriy-huquqiy negizlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 14 ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 ga yaqin Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 100 dan ortiq qarori qabul qilindi. 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risidagi Qonunning 2-bandida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, 3-bandida fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashda profilaktikaga ustuvor yo‘nalish berish zarurligi ko‘rsatib berildi”[3].

Oila, onalik va bolalikni xalqaro huquqiy himoya qilish asoslari umuminsoniy va mintaqaviy xarakterdagi bir qator xalqaro shartnomalar bilan mustahkamlangan. Ular orasida quyidagilar mavjud:

- ✓ 1948 yil 10 dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida onalik va bolalik uchun yuridik yordam olish huquqi belgilandi[4];
- ✓ BMTning 1979-yil 18-dekabrda Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi[5];
- ✓ 1989-yil 20-noyabrda ixtiyoriy bayonnomaga ega bo‘lgan BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi[6];
- ✓ XMTning 156-sonli “Erkaklar va ayollar ishchilari uchun teng munosabat va teng imkoniyatlar to‘g‘risida: oilaviy mas’uliyatli ishchilar” (Jeneva, 1981 yil 3 iyun), XMTning “Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va bartaraf etish bo‘yicha zudlik bilan chora ko‘rish to‘g‘risida”gi 182-sonli Konvensiyasi[7] (Jeneva, 1999 yil 17 iyun)[8].

1991 yildan boshlab ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi. Onalar va bolalar salomatligini muhofazalash jarayonlari quyidagi ijtimoiy ehtiyojlarni o‘zida mujassamlashgan hamda mazkur ehtiyojlarni qondirib borish rakursida tahlil etildi:

- Yangi O‘zbekiston ijtimoiy himoyalash masalasi davlatning ustuvor siyosati sifatida anglashning umumjamiyat ehtiyojga aylangan;
- Onalar va bolalar salomatligini himoya qilish mas’uliyatining nafaqat davlat va jamiyat, balki har bir oila kesimida ijtimoiy ehtiyojga transformasiyalashgani;
- Salomatlikni muhofaza etishning oila, onalik va bolalik kesimida muhofazalashning huquqiy asoslarini uzluksiz takomillashtirishning ijtimoiy ehtiyoj sifatida kuchayib borayotganligi;

- Insonni qadrlash, inson manfaatlarini himoyalash, xususan, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish masalasining jamiyatdagi eng dolzarb ma'naviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida mustahkamlanganligi;

Onalik va bolalikni himoyalash, salomatligini muhofazalash ishlari bo'yicha ijtimoiy ehtiyojlarning insonga nisbatan mehrlilik, yaxshilik qilish qadriyati bilan birlashganligi milliy mentalitetimizga markaziy, o'zak jihatidan kuch oladi. Mazkur ehtiyojlarni saralash quyidagi tamoyillari mohiyatan kelib chiqildi:

- Xalqchilik;
- Insonparvarlik;
- Hamjihatlilik;
- Hamkorlik;
- Holatni qiyosiy idrok etishlik;
- Fuqarolar manfaatlarini va huquqlarini anglash;
- Jamiyatning yalpi harakati sifatida anglash;

Mamlakatimizning turli hududlarida amalga oshirilgan Sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, onalar va bolalar salomatligini himoyalash borasidagi ijtimoiy ehtiyojlarning ichki harakatlantiruvchi omillari aniqlandi. Ular quyidagilardir:

- Har bir onaning o'z oilasiga ekanligi qadriyatlar qatorida birinchi o'ringa qo'yganlari; (Jami respondentlarning 98.5% tugal oilaga egalikni eng muhim qadriyat sifatida belgilaganlar).

- Har bir qiz bolaning ona maqomiga o'tish maqsadining eng muhim zarurat, ehtiyoj va qadriyat sifatida anglanishi (respondentlarning 99.3% shunday ehtiyojni qayd etganlar).

- Bolajonlik, farzand ko'rish, farzandi uchun umri, sog'ligi va energiyasini bag'ishlashga tayyorligi (so'rovga jalb etilganlarning 91.6%).

- O'zaro yordam, ezgulik qilib yashash etnomadaniyati.

- Onalar va bolalar (o'smirlar)ning o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan ichki motivatsiyasi individual ehtiyoj sifatida amal qilish.

Onalar va bolalar salomatligini ijtimoiy himoya qilish turkumiga Abraxam Maslouning ehtiyojlar piramidasi[9] asosida tahlil qilganimizda quyidagi Sotsiologik manzara yuzaga keldi:

Onalik va bolalikni ijtimoiy himoyalash va salomatligini mustahkamlashda fiziologik ehtiyojlarning qondirishning ta'sirini 12.4% "ayniqsa zarur" deb hisoblaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra onalar va bolalarning xavfsizligini ta'minlashning holati jamoatchilik fikriga kura 76% dan iborat bo'ldi. Buning asosiy Sotsiologik javobi mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilib hayotga joriy etilayotgan "xavfsiz hudud", "xavfsiz mahalla" kafolatli xavfsizlik ta'minlashdan iborat davlatlari asosida tinchlikning barqaror o'rnatilganligi odatiy hayot tarziga aylanayotgani bilan izohlanadi.

- Onalar va bolalarning salomatligi muhofaza etish jarayonlarida ularga nisbatan hurmat ko'rsatish va insoniy munosabatda bo'lish omilining muhimligini ham respondentlar qayd etishdi (so'rovga jalb etilganlar 71.4%)


- Onalar va bolalar salomatligini muhofazalashda mehr-muhabbat bilan yondashishning ehtiyoj sifatidagi o'rni respondentlarning so'ralganda 40.2% so'ralganlar mazkur onilning juda muhimligini qayd etishdi.

- A. Maslou piramidasiidagi ierarxiyaga ko'ra eng so'ngi ehtiyoj turi bo'lgan o'z faoliyatiga muhabbat va katta ishonch asosiy omil sifatida namoyon bo'ldi

- Ijodiy munosabatda bo'lishning zarurligi xususida so'ralganlarning 65.3% so'ralganlar ma'qullab fikr bildirdilar

Bunday natija, tabiiyki onalar va bolalarga nisbatan mehr va muhabbatli munosabatda bo'lish, Yangi O'zbekistonimizda odamlardan ijobiy bo'lishini xohlash bilan izohlanadi.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza etishda A.Maslouning munosabatlardagi ierarxik piramida amaliyotini negizida anketa so'rovi sxemasi qilindi.



Onalar va bolalar salomatligini muhofazalashga doir yondashuvlar ijtimoiy davlat tamoyillariga asoslanadi. Bir biridan sifat jihatdan farq qiladigan ijtimoiy tizimlarning murakkab ierarxiyasi ham aynan mazkur muammoga doir ijtimoiy ehtiyojlarni puxta hisobga olishni taqozo etadi. Demak salomatlikka bo'lgan jamiyat va inson munosabati ham bu boradagi ehtiyojlarning qondirilishi tizimning dinamik o'zaro ta'siriga bog'liq.

So'nggi tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, onalik hodisasining ilk davri, ya'ni, homiladorlikning to'rtinchi oyidan boshlab, inson homilasi allaqachon o'ziga xos reflektiv ongga ega bo'lib, o'zini o'zi himoyalash mexanizmlarini ishga tushiradi, u ichki o'zgarishlarni va unga etib boradigan tashqi ogohlantirishlarni o'ziga xos tarzda his qiladi, eshitadi, tushunadi va reaksiyaga kirishadi. Ona qornidagi bola onaning harakatlari va kayfiyatiga mutanosib harakanlanadi, premitiv, ammo o'zining individual shaxsiy va muhim taassurotlarga ega bo'ladi. Shu boisdan ham ona va bola salomatligining ilk davr, ya'ni, hali onaning homiladorligi paytidan boshlab muhofaza tizimini yo'lga qo'yish, fuqarolik jamiyati institutlari va sog'liqni saqlash tashkilotlari faoliyatini integrativ takomillashtirish, o'zaro uyg'un faoliyatni yo'lga qo'yishning ilmiy nazariy asoslangan innovasion modeli tavsiya etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: 2023. – Б. 13.
2. Оналик ва болаликни ҳимоя қилиш масалалари бўйича қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, 2004. – Б. 113–114. (Жами 656 бет) Шарқ нашриёти.
3. Оналик ва болаликни ҳимоя қилиш масалалари бўйича қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, 2004. – Б. 113–114. (Жами 656 бет) Шарқ нашриёти.
4. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси
5. Аёлларга нисбатан камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисидаги конвенцияси 18.08.1995 йилда Ўзбекистонда кучга кирган
6. Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция қоидаларини амалга ошириш бўйича Ўзбекистоннинг Бешинчи даврий маърузаси юзасидан БМТнинг Бола ҳуқуқлари бўйича қўмитаси тавсияларини амалиётга татбиқ этиш тўғрисида 21.02.2024 йилда Ўзбекистонда кучга кирган <https://lex.uz/docs/6848811>
7. Болалар меҳнатининг энг ёмон шакллари тўғрисидаги 182-сон-Конвенция. 24.06.2009 йилда Ўзбекистонда кучга кирган <https://lex.uz/ru/docs/1584627>
8. Ольга Владимировна Кныш Мотивация личности. Теория Маслоу. http://www.litres.ru/pages/biblio_book/?art=42123789 SelfPub; 2019

REZYUME:

Ushbu mavzuning o'rganilishi davlat tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning real natijalarini ko'rsatib beradi va jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy yordam, sotsiologik tadqiqotlar, onalik va bolalikni himoya qilish konsepsiyasi.

РЕЗЮМЕ:

Изучение данной темы показывает реальные результаты социальной помощи, оказываемой государством населению, и способствует повышению благосостояния общества.

Ключевые слова: социальная помощь, социологическое исследование, концепция защиты материнства и детства.

RESUME:

The study of this topic shows the real results of social assistance provided by the state to the population and serves to increase the well-being of society.

Keywords: social assistance, sociological research, the concept of protection of motherhood and childhood.